



O'SMIRLIK DAVRIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASINING SHAKLLANISHIGA IJTIMOY MUHITNING TA'SIRI

Jurayev Xaydarjon Odilboyevich

University of business and science

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>

Email: haydarbekjurayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15301174>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 25- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 29- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

SHaxs va xarakter aksentuatsiyasi, oila va muxit, respondent, deviant xulq, pubertal davr, sikloit tip

ABSTRACT

Ushbu maqolada jamiyatda o'smirlik yosh davrida yuzaga keladigan xarakter aksentuatsiyasini shakllanishiga ijtimoiy muxitning ta'siri va omillari xaqida nazariy jixatdan yoritilgan.

O'smirlik inson hayotidagi eng murakkab va mas'uliyatli davrlardan biri bo'lib, biologik, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari, o'z-o'zini anglash jarayonlari kuchayadi. Aynan shu bosqichda xarakter aksentuatsiyalari, ya'ni ba'zi xarakter chiziqlarining haddan tashqari kuchayishi kuzatiladi.

Xarakter aksentuatsiyasi bu normal shaxs rivojlanishi doirasida, lekin ma'lum ijtimoiy va psixologik sharoitlarda keskin ifodalangan individual xususiyatlarning shakllanishi. Aksentuatsiyalarning shakllanishida biologik omillar bilan bir qatorda, ijtimoiy muhit oila, maktab, tengdoshlar guruhi va madaniy an'analar ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada aynan o'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasining shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri ilmiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism

O'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasini shakllanishi va uning ijtimoiy hayot bilan bog'liq jixatlarini shaxsga va atrof muxitga nisbatan ta'sirining o'rgangan tadqiqotchilarning fikrlarini nazariy jixatdan taxlili qilindi jumladan K. Leongard va A.E. Lichko nazariyalari

Karl Leongard (1968) xarakter aksentuatsiyasini "norma va patologiya oralig'idagi holat" deb tariflagan. U 12 turdagi aksentuatsiyani ajratgan va bu turdagi shaxslar og'ir ijtimoiy vaziyatlarda psixologik moslashuvda qiyinchiliklarga duch kelishini ta'kidlagan.

A.E. Lichko esa aynan o'smirlik davrida aksentuatsiyalar yanada yaqqol ko'rinishini aytgan va 11 tipdagi aksentuatsiyani tavsiflab bergan. Lichko fikricha, aksentuatsiya **gormon o'zgarishlari, ijtimoiy rollarning yangilanishi va mustaqillikka intilish** bilan bog'liq holda chuqurlashadi.

Lichko shuningdek, ijtimoiy muhit bilan noto'g'ri o'zaro ta'sirda aksentuatsiyalar patologik rivojlanish sari og'ib ketishi mumkinligini ham uqtirgan (masalan, kompensatsiya mexanizmlarining buzilishi).

Sotsializatsiya nazariyasi (D. Feldshteyn, L. Kulikov, E. Durkheim)

Sotsializatsiya bu shaxsning jamiyat me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirishi jarayoni bo'lib, u orqali shaxs ijtimoiy munosabatlarga moslashadi.

Durkheim fikricha, jamiyatda **anomik holatlar** (me'yorlar tanazzuli, qadriyatlar izdan chiqishi) o'smirda psixologik beqarorlikka olib keladi. Bu esa o'z navbatida nevrotik xususiyatlar va aksentuatsiyalarning kuchayishiga olib keladi.

Masalan, oilaviy inqiroz yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlov yetishmasligi o'smirning shaxsiy identitetini shakllantirishda salbiy ta'sir ko'rsatadi (E. Eriksonning "rol chalkashligi" bosqichi bilan bog'liq).

E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi

E. Erikson o'smirlik davrini "identitetga erishish vs rol chalkashligi" bosqichi deb atagan. Bu davrda o'smir:

- O'zini anglashga harakat qiladi,
- Jamiyatdagi rolini aniqlaydi,
- O'ziga xos qadriyatlar va dunyoqarashni shakllantiradi.
- Agar ijtimoiy muhitda qo'llab-quvvatlash, tan olish va yo'l-yo'riq bo'lmasa, o'smir o'zini anglashda chalkashlikka duch keladi va bu holat aksentuatsiyalarning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Bandura va Vygotskiy nazariyalari

A. Bandura: Ijtimoiy o'rganish nazariyasi asosida, o'smirlar boshqalar xatti-harakatlarini kuzatib, ularni takrorlaydi. Ya'ni, agar do'stlari tajovuzkor yoki passiv bo'lsa, o'smir ularni "model" qilib oladi.

L.S. Vygotskiy: "Yaqin rivojlanish zonasi" kontsepsiyasiga ko'ra, shaxsiy xususiyatlar ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda shakllanadi. Muloqot jarayoni va madaniy vositalar orqali o'smir o'z psixikasini rivojlantiradi.

O'smirlik davri va xarakter aksentuatsiyasining psixologik xususiyatlari.

O'smirlik davri 10–18 yosh oralig'ini o'z ichiga oladi va shaxsiyat shakllanishining o'ta faol bosqichidir. Bu davrda:

- Mustaqillikka intilish kuchayadi,
- Avtoritetlarga nisbatan tanqidiy munosabat kuchayadi,
- Emotsional beqarorlik kuzatiladi,
- O'z-o'zini anglash va identitet izlash jarayonlari sodir bo'ladi. Psixologiya sohasida xarakter aksentuatsiyasi tushunchasini birinchi bo'lib nemis psixiatr K. Leongard (1968) kiritgan. U shaxsning ayrim sifatlarining haddan tashqari kuchayishini "aksentuatsiya" deb atagan. Keyinchalik rus olimi A.E. Lichko (1970-yillar) bu tushunchani o'smirlar rivojlanishiga moslab kengaytirgan va o'smirlar uchun xarakter aksentuatsiyasining 11 tipini ta'riflagan (gipertim, tsikloid, emotsional-labil, demonstrativ, va boshqalar).

Ijtimoiy muhit omillarining ta'siri

a) Oila muhitining roli

Oila- o'smirning birlamchi ijtimoiylashuv instituti. Oiladagi:

- Me'yor va qadriyatlar tizimi,
- Tarbiya uslubi (avtoritar, demokratik, erkin),
- Emotsional muhit (sevgi, e'tibor, tanqid),
- Konfliktlarning mavjudligi

O'smir xarakterining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, haddan tashqari

nazorat qilish demonstrativ yoki o'ziga ishonchsiz tipdagi aksentuatsiyani kuchaytirishi mumkin. E'tibordan chetda qolgan o'smirlar esa shubha-gumonli yoki emotsional-labil tipdagi xususiyatlarni rivojlantirishi ehtimoli yuqori.

b) Maktab va tengdoshlar guruhi

Maktab o'smir uchun ikkilamchi ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi. Bu yerda o'quvchilarning o'zaro raqobati, pedagoglarning yondashuvi va ijtimoiy maqom (sinfdozlardagi o'rni) kabi omillar shaxsiyat rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

Tengdoshlar guruhi esa o'smirlar uchun shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy maqom izlash maydonidir. Do'stlar va guruh a'zolarining qadriyatlarini va me'yorlari o'zaro ta'sir natijasida o'smirlar o'z xarakter chiziqlarini kuchaytiradi yoki o'zgartiradi.

Masalan, tajovuzkor guruhda bo'lish aggressiv va impulsiv aksentuatsiyalarni shakllantirishi mumkin.

c) Ommaviy axborot vositalari va internet

Zamonaviy o'smirlarning rivojlanishida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va internet muhim rol o'ynamoqda. Virtual muloqot, bloglar, videokontentlar orqali namoyish etilayotgan qadriyatlar va xulq-atvor modellarini o'zlashtirish aksentuatsiya darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Masalan, virtual olamda mashhur bo'lish istagi demonstrativ aksentuatsiyani kuchaytirishi mumkin.

d) Mahalla va madaniy an'analar

Mahalliy madaniyat va urf-odatlar shaxsning qadriyat tizimini shakllantiradi. An'anaviy jamiyatlarda ijtimoiy me'yorlarning qat'iyligi natijasida konformistik (atrofdagilarga moslashuvchan) aksentuatsiyalar shakllanishi mumkin.

Ayniqsa kollektivizmga asoslangan madaniyatlarda shaxsiy fikr bildirishdan ko'ra jamoaga moslashish ko'proq qadrlanadi, bu esa shaxsdagi passivlik yoki tashabbusizlik aksentuatsiyasini kuchaytirishi mumkin.

Xulosa

O'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasining shakllanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, unda ijtimoiy muhit muhim o'rin tutadi. Oila, maktab, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari va madaniy an'analar shaxsning xarakter xususiyatlarini kuchaytirishi yoki yumshatishi mumkin. Ijobiy ijtimoiy muhit mehr-oqibatli oila, sog'lom do'stlik munosabatlari va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan madaniyat shaxsning barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, o'smirlarning sog'lom psixologik rivojlanishini ta'minlash uchun har bir ijtimoiy institut o'z faoliyatini yanada mas'uliyat bilan yo'naltirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. АКЦЕНТУАЦИИ ЛИЧНОСТИ КАК ФАКТОР ПСИХИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ ВУЗА Тюркина Ирина Владимировна СанктПетербург 2016,
2. ПСИХОЛОГИЯ ХАРАКТЕРА Учебное пособие Марина Валерьевна Шамардина, Ирина Александровна Ральникова, Елена Анатольевна Петухова Барнаул 2020
3. . Deviant xulq-atvor psixologiyasi I.M.Xakimova O'quv qo'lanma Toshkent 2014
4. Haydarjon J. SHAXS IJTIMOY XIMOYASIZLIGINI OGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOY PSIXOANALITIK MEXANIZMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR

ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 9-12.

5. Leongard K. "Xarakter aksentuatsiyasi" (1968).

6. Jurayev, X. O. (2024). Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o‘z men konsepsiyasining psixologik mexanizmlari. Science and Education, 5(9), 237-242.



INNOVATIVE
ACADEMY